



FIDOYI INSONLARNING MEHNATI




Mutolaa lazzati har bir insonning ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Kitob o'qish, ilm olish, dunyoviy yangiliklardan boxabar bo'lish, axborotlarni uzluksiz qabul qilib yashash – bugungi asrimizning global hayot tarziga aylandi.



REDMI NOTE 6 PRO
MI DUAL CAMERA

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida talaba-yoshlar, professor-o'qituvchilarning yanada kengroq ilm egallashi, badiiy mutolaadan qolaversa, butun jahonda yuz berayotgan muhim yangiliklardan bahramand bo'lishlari uchun institut hududida Axborot resurs markazi xolis xizmat qilib kelmoqda. ARM O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentabrdagi 3271-soni qarori asosida ish faoliyati olib bormoqda. Hozirgi kunda ARM fondi 13702 nomda 83563 nusxadagi adabiyotlarni tashkil etadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida Fanlar Akademiyasi akademigi Aziz Qayumovning kutubxonashunoslik yo'nalishiga bo'lgan talab va taklifiga binoan yosh kutubxonachi kadrlar tayyorlash maqsadida institutda o'tgan yili "Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik" ta'lim yo'nalishiga 50 ta talaba, joriy yili esa 150 ta talaba qabul qilindi. Bu ko'rsatkich yurtimizda kitobxonlikka berilayotgan muhim e'tibor hamda insonlarning intellektual darajasini yuksaltirishdagi qilinayotgan muhim ishlar samarasi hisoblanadi.



REDMI NOTE 6 PRO
MI DUAL CAMERA



Hozirda ARM zarur jihozlar, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari bilan to'liq ta'minlangan. Shuningdek, 17 ta kompyuter, 4 ta skaner, 5 ta printer va 4 ta nusxa ko'chiruvchi texnik jihozlar barcha kitobxonlarga xizmat qilib kelmoqda. Binoda ichki tarmoq mavjud hamda kompyuterlar internet (Wi-Fi) tarmog'iga ulangan. Kitobxonlar muntazam ravishda internetdan foydalangan holda respublikaning barcha

oliy ta'lim muassasalarining ARMlаридан, institut ARMning elektron katalogидан adabiyotlar qidirib topishлари, zarur elektron resursлardan foydalanishлари, istalgan axborotlarni izlab topishлари mumkin. Axborot-elektron resurslar bo'limida institut professor-o'qituvchilarning o'quv qo'llanmalari, darsliklar, o'quv-uslubiy majmular, ilmiy-publitsistik maqolalarning elektron nusxalari hamda imkoniyati cheklangan ko'zi ojiz kitobxonlar uchun audio kitoblar mavjud. Bundan tashqari, Web of Science, Scopus, Diet Science xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan impakt faktori yuqori bo'lgan nufuzli chet el ilmiy журнallaridan ham foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilgan.



REDMI NOTE 6 PRO
MI DUAL CAMERA

Institut rektori, professor Ibrohim Yuldashev hamda ARM

rahbari Zebuniso Abdug'aniyeva boshchiligidagi, institut Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, Xotin-qizlar kengashi, mutaxassislik kafedralari hamda iqtidorli ijodkor talaba-yoshlar bilan birgalikda ko'plab tadbirlar, kitobxonlik seminarlari, ijodiy uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazib kelinmoqda. Bularning barchasi talaba-yoshlar ma'naviyatini boyitish, ichki madaniyatini yanada go'zallashtirish, dunyoqarashlarini kengaytirishda va eng asosiysi, kitobga mehr qo'yishlarida muhim qadamlardandir. ARMda Jumagul Allayorova, Naima Abdunazarova, Nigora Boltaboyeva, Fotima Tasheva, Alla Parlapani, Samiya Salimova, Surayyo Ganjiyeva singari malakali kadrlar faoliyat yuritib, o'zaro ahil jamoani tashkil etishgan.

ARMda vaqtli matbuot nashrlari uchun ham salmoqli darajada obuna tashkil qilingan bo'lib, har haftada 31 nomda 57 nusxada gazeta-jurnallarning yangi sonlari yetkazib beriladi. San'at va madaniyat sohalarida o'qib, ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan magistrantlar, yosh olimlar, doktorantlar uchun o'z salohiyatlarini namoyon etishlari, bilim darajasini ko'tarishlari uchun matbuot xizmatining o'rni yuqori ekanligi hamda mutolaaning ta'minlanganligi ijobiy natijalar berib kelmoqda.

Mazkur ilm dargohi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi tizimidagi ARMLar hamda barcha kollej va litseylarning ARM xodimlariga vakolat doirasida amaliy va uslubiy yordam ko'rsatib keladi. Shu bilan birga, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi, "Turon" nomli Toshkent viloyati Axborot kutubxona markazi, Respublika Bolalar kutubxonasi bilan hamkorlikda ish olib

boriladi.

Yangi kitoblar, jahon adabiyotining sara namunalari ARMning bibliografiya bo'limi tomonidan har chorakda nashr qilinadigan maxsus "Axborot byulleteni" orqali institut ilmiy kengashida va fakultetlar yig'ilishida muntazam ravishda tanishtirib kelinmoqda.

Ilm olish, tezkor ravishda zaruriy axborotlarni qabul qilib, yangi davr bilan ham nafaslikda yashash sharti – insonni har doim axborot izlashga, kitob varaqlab, gazeta va jurnal o'qishga, internetdan foydalanishga majbur etadi. XXI asr – axborot asri ekan, yuqoridagi majburiyatni to'liq anglagan holda, o'z burchini ado etayotgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ARMning fidoyi xodimlariga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!

Dostonbek RAHMATULLAYEV